



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA MISR VA SURIYADA RADIKALIZM, DINIY EKSTREMIZM KUCHAYISHINING ICHKI VA TASHQI OMILLARI

Sherbek Yodgorov

Tayanch doktorant,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar:

radikalizm, diniy ekstremizm, terrorizm, mintaqaviy xavfsizlik, xavfsizlikka tahdid, Yaqin Sharq, “Favqulotda holat to‘g‘risida”gi qonun, Arab – Isroil urushlari, “Kemp-Devid” shartnomasi, “Musulmon birodarlar”.

Annotatsiya: XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Yaqin

Sharq mintaqasidagi radikal diniy guruhlar va diniy ekstremistik kuchlar tajovuzi shu qadar keng tus oldiki, muammo ko‘lami nafaqat milliy va mintaqa xavfsizligiga, balki global miqyosda ham tinchlik va barqarorlikka tahdid sola boshladi. Ayniqsa, bu davrda Yaqin Sharq mintaqasining ikki yirik davlatlari – Misr Arab Respublikasi hamda Suriya Arab Respublikasida radikalizm va ekstremizmning kuchayishi hukumatlarni bu muammo bilan jiddiy kurashishga majbur qildi. Yaqin Sharq arab mamlakatlarida aholining radikallashuvi hamda diniy ekstremizm kuchayishining sabablari va omillari xilma-xildir. Ushbu radikallashuv natijasida yuzaga kelgan terrorizm muammosi jiddiy fojia. Mintaqalararo kengliklarda xavfsizlikka tahdid solayotgan radikalizm va ekstremizmning ijtimoiy kelib chiqish sabablariga ko‘ra tadqiqi turli soha olimlarining diqqat markazida bo‘lib qolmoqda. Tadqiqot doirasida mavzuga oid materiallarni tahlil qilar ekanmiz, aksariyatida muammoni yoritishda bir tomonlama yondashuv ustivorlik qilishi ko‘zga tashlanadi. Mazkur maqolada radikalizm va ekstremizm muammosining kelib chiqish ildizi hamda uni keltirib chiqarayotgan omillarni ochib berishga harakat qilinadi.

INCREASING RADICALISM AND RELIGIOUS EXTREMISM IN EGYPT AND SYRIA AT THE END OF THE 20TH CENTURY - THE BEGINNING OF THE 21ST CENTURY INTERNAL AND EXTERNAL FACTORS

Sherbek Yodgorov

Foundation PhD student,

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: radicalism, religious extremism, terrorism, regional security, security threat, Middle East, State of Emergency Law, Arab-Israeli wars, Camp David Accords, Muslim Brotherhood.

Abstract: At the end of the 20th - beginning of the 21st century, the aggressiveness of radical religious groups and religious extremist forces in the Middle East region became so widespread that the scale of the problem began to threaten not only national and regional security, but also global peace and stability in the region. The growth of radicalism and extremism in the two largest countries in the Middle East region - the Arab Republic of Egypt and the Syrian Arab Republic - forced governments to address this issue seriously. The reasons and factors for the radicalization of the population and the growth of religious extremism in the Arab countries of the Middle East are varied. The problem of terrorism resulting from this radicalization is a serious threat. The study of the causes of radicalism and extremism, which threaten security in interregional relations, is in the focus of attention of scientists in various fields of science. Analyzing the materials related to the topic within the framework of the study, one can see that most of them gave preference to a one-sided approach in covering the problem. This article attempts to reveal the true causes of the problem of radicalism and extremism, as well as the factors that cause this problem.

РОСТ РАДИКАЛИЗМА И РЕЛИГИОЗНОГО ЭКСТРЕМИЗМА В ЕГИПТЕ И СИРИИ В КОНЦЕ XX - НАЧАЛЕ XXI ВЕКА ВНУТРЕННИЕ И ВНЕШНИЕ ФАКТОРЫ

Шербек Ёдгоров

Докторант,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: радикализм, религиозный экстремизм, терроризм, региональная безопасность, угроза безопасности, Ближний Восток, Закон «О чрезвычайном положении», арабо-израильские войны,

Аннотация: В конце XX - начале XXI века агрессивность радикальных религиозных групп и религиозно-экстремистских сил в ближневосточном регионе приобрела настолько масштабный характер, что это стало угрожать не только национальной и региональной безопасности, но и также глобальному миру и стабильности в регионе. Рост радикализма и экстремизма в двух крупнейших странах ближн-

КЭМП-Дэвидские соглашения, евосточного региона - Арабской Республике Египет и “Братья-мусульмане”. Сирийской Арабской Республике - заставил правительства серьезно заняться этой проблемой. Причины и факторы радикализации населения и роста религиозного экстремизма в арабских странах Ближнего Востока разнообразны. Проблема терроризма, возникающая в результате этой радикализации, представляет собой серьезную угрозу. Изучение причин радикализма и экстремизма, угрожающих безопасности в межрегиональных отношении, находится в центре внимания ученых различных областей науки. Анализируя материалы, относящиеся к теме в рамках исследования, можно увидеть, что в большинстве из них предпочтение отдается одностороннему подходу в освещении проблемы. В данной статье делается попытка раскрыть истинные причины проблемы радикализма и экстремизма а также факторы, вызывающие данную проблему.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoning turli mamlakatlari tinchligi, mintaqalar xavfsizligi va barqarorligiga xavf tug‘diruvchi global ahamiyatga ega tahdidlar kuchayib bormoqda. Ana shunday tahdidlar orasida radikalizm, diniy ekstremizm va terrorizm kabi xavf-xatarlar borki, ular ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun katta raxna solmoqda. Shu jihatdan bunday xavf-xatarlarning oldini olish, xavfsizlikni ta’minlash jahon hamjamiyatining umumiy vazifasi bo‘lib qolmoqda.

2022-yilning 13-oktabr sanasida Qozog‘iston poytaxti Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning VI sammitida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari barqarorligi, taraqqiyot va farovonligiga raxna solayotgan radikalizmga to‘xtalib, uning yoshlar orasida keng tarqalayotganligi, bunday xavf-xatarlarga qarshi kurashda o‘zaro hamkorlik o‘rnatishga alohida e’tibor qaratdi: “Biz radikal g‘oyalarning keng xurujiga yanada ko‘proq to‘qnash kelmoqdamiz. Buzg‘unchi kuchlar targ‘ibot va mafkuraviy ta’sirning yangi usullaridan foydalangan holda ekstremistik tashkilotlarga yoshlarni faol jalb etmoqda. Shu munosabat bilan yosh avlodni radikalizmdan asrash, ularning kuch-g‘ayrati va azmi-shijoatini bunyodkorlik sari yo‘naltirish uchun tizimli hamkorlikni o‘rnatishimiz kerak”¹.

Shunday ekan, mintaqalararo kengliklarda xavfsizlikka tahdid solayotgan radikalizm, ekstremizm va terrorizmning ijtimoiy kelib chiqish sabablariga ko‘ra tadqiqi turli soha olimlari, xususan, faylasuf va siyosatshunoslar, diniy arboblarning diqqat markazida bo‘lib qolmoqda. Tadqiqot doirasida mavzuga oid materiallarni tahlil qilar ekanmiz, aksariyatida muammoni yoritishda bir tomonlama yondoshuv ko‘zga tashlanadi. Mazkur maqolada Misr va Suriya

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning VI sammitidagi nutqi. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. № 211 (733), 2022-yil 14-oktabr soni. (Speech by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the 6th Summit of the Council for Cooperation and Confidence Building Measures in Asia. Newspaper “New Uzbekistan”. No. 211 (733), issue dated Oct. 14, 2022)

davlatlari misolida radikalizm va ekstremizm muammosining kelib chiqish ildizi hamda uni keltirib chiqarayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillarni ochib berishga harakat qilinadi.

Diniy ekstremizm va terrorizm Yaqin Sharq mintaqasi mamlakatlari milliy xavfsizligi uchun eng qadimiy tahdidlardan biri bo'lib kelgan va u hali "mag'lubiyatga uchragan" emas. Professor Sh.G'oyibnazarov ta'kidlaganidek: "XX asr so'ngida Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada avvalgidek siyosiy yoki milliy g'oyalar emas, balki ekstremizm va terrorchilik shaklidagi islom aqidalarining noto'g'ri sharhlari asosidagi soxta diniy terrorchilik to'da va uyushmalarining faol tiklanish jarayoni boshlandi"².

Yaqin Sharq arab mamlakatlarida aholining radikallashuvi hamda islom dinining siyosiy lashuvi sabablari va omillari xilma-xildir. Ushbu radikallashuv natijasida yuzaga kelgan terrorizm muammosi jiddiy fojidadir. Dunyoning eng "og'riqli" nuqtalaridan Yaqin Sharq mintaqasida sodir bo'lgan terrorchilik hurujlari nafaqat milliy va mintaqaviy xavfsizlikka, balki global miqyosda katta tahdid manbayiga aylandi. Global terrorizm indeksining 2018-yil hisobotlariga ko'ra (hisobot davri 2002-2017-yillarni qamrab oladi), Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasi dunyoning boshqa mintaqalariga qaraganda terrorizmdan eng ko'p zarar ko'rgan mintaqasi sifatida e'tirof etilgan³. Yaqin Sharq davlatlarining ekstremizm va terrorizmi yuzaga keltiruvchi omillar bilan emas, balki uning oqibatlariga qarshi kurashda an'anaviy va harbiy strategiyalar bilan cheklanib qolayotgani mintaqada terrorchilik tahdidlarining hamon saqlanib qolayotganligining asosiy sabablaridan biridir.

Yaqin Sharq mintaqasida faoliyat olib boradigan terrorchi tashkilotlar hamda radikal diniy guruh va oqimlardan keladigan tahdidlarning ahamiyati yolg'iz mintaqaviy davlatlari taqdiri bilan bog'liq bo'lib qolmay, keng ko'lamdagi xalqaro xavfsizlik va barqarorlik masalalariga bog'lanib ketadi. Shu nuqtayi nazardan, Yaqin Sharq mamlakatlarida aholining radikallashuvi va diniy ekstremizmning kuchayish omillarini o'rganish, yoshlarning radikal diniy tashkilotlar ta'siriga tushib qolish sabablarini tadqiq etish bugungi kunning dolzarb mavzularidan bo'lib, bu masalalarni mintaqaviy yechim va mamlakatlar bo'yicha alohida-alohida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asr oxiri – XXI asr boshlariga kelib Yaqin Sharq mintaqasining boshqa mamlakatlarida bo'lgani singari Misr Arab Respublikasi (MAR) va Suriya Arab Respublikasi (SAR)da ham ichki, ham tashqi omillar sabab aholining radikallashuvi hamda diniy ekstremistik tashkilotlarning faollashuvi kuchaydi. Dastavval, ichki omillarga to'xtalsak.

Misr va Suriyada radikalizm va diniy ekstremizm kuchayishining ichki omillari XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Misr va Suriyada diniy ekstremizm va radikalizmning keng yoyilishiga, islom dinining siyosiy lashuviga ta'sir ko'rsatgan ichki omillarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin:

- 1) siyosiy omillar;
- 2) ijtimoiy-iqtisodiy omillar.

2 G'oyibnazarov Sh. Islom terrorizmga qarshi. – T: «O'zbekiston» NMIU, 2021. –B. 40. (Goyibnazarov Sh. Islam against terrorism. – T.: "Uzbekistan", 2021. -P. 40.)

3 ملامح خريطة الإرهاب في الشرق الأوسط. إيمان رجب 3

<https://www.almasryalyoum.com/news/details/1367905> // (Dr. Ragab E. Features of the map of terrorism in the Middle East. // <https://www.almasryalyoum.com/news/details/1367905>)

Siyosiy omillar. Xalqaro va mahalliy mutaxassislar Misr hamda Suriyada diniy ekstremizm va radikalizmning yoyilishiga ta'sir ko'rsatgan siyosiy omillar sirasiga quyidagilarni sanab o'tganlar⁴:

- demokratiyaning tanqisligi, ya'ni demokratik institutlarning to'liq shakllanmaganligi;
- Misrda ham, Suriyada ham "Favqulodda holat to'g'risida"gi qonunning uzoq yillar davomida joriy qilib kelinganligi;
- kattagina aholi qatlamining G'arb modernizatsiyasi, texnologik va madaniy jihatlarini qabul qilmasligi;
- sotsialistik tajribaning inqirozga yuz tutishi;
- islom muxolifat harakatlariga qarshi olib borilgan keskin siyosat.

Demokratik institutlarning to'liq shakllanmaganligi. Tarixan Yaqin Sharq mintaqasida davlat boshqaruv tizimi hamda siyosiy hokimiyatida harbiylarning ahamiyati va roli hal qiluvchi xususiyat kasb etib kelgan. Dunyoning boshqa mintaqalari bilan qiyoslab o'rganilganda ham Yaqin Sharqda qurolli kuchlarning roli juda yuqori ekanligi ko'rinadi. Ijtimoiy hayot va iqtisodiyotni islohtlashtirish ishlarida katta yutuqlarga erishilgan boshqa mamlakatlarda esa harbiylar mamlakat hayotida muhim rol o'ynasa ham, qurolli kuchlarning davlat siyosatiga aralashuvi unchalik sezilmagan⁵.

XX asr o'rtalarida milliy qurolli kuchlar Yaqin Sharqdagi bir qator arab mamlakatlarining G'arb mustamlakachiligidan ozod bo'lishida hal qiluvchi rol o'ynadi va hozirga qadar davlat hokimiyatining asosiy dastaklarini o'z qo'lida ushlab kelmoqda. Bir tarafdin Misr*, Suriya* va boshqa arab mamlakatlarida harbiylarning hokimiyat tepasiga kelishi ichki siyosiy barqarorlikning mustahkamlanishiga va ichki urushlarning bartaraf bo'lishiga olib kelgan bo'lsa, boshqa tarafdin harbiylar tomonidan avtoritar boshqaruv tizimining o'rnatilishi fuqarolik jamiyatining haqiqiy demokratik institutlar boshqaruvi rivoji uzilib qolishiga sabab bo'ldi. Ustiga-ustak harbiylar islohotlar o'tkazish va jamiyatda yangilanishlarni amalga oshirishda har doim ham yetarlicha professional emasdilar. Ayniqsa, armiya manfaatlariga tahdid soluvchi islohotlarni davom ettirmasdilar. Suriyaning zamonaviy tarixi bo'yicha fundamental tadqiqotlar muallifi V.Axmedov ta'kidlaganidek, "bir qator arab davlatlaridagi "avtoritar rejimlar" deb nomlanuvchi boshqaruvning uzoq davom etishi ularda ma'lum darajada fuqarolik jamiyati institutlarining amalda yo'qligini shart qilib qo'ydi, bu esa uzoq yillar haqiqiy demokratik

4 Batafsil qarang: Ёвкочев Ш.А. Политизация религии и проблема исламского экстремизма в современном Египте: дис. ... канд. полит. наук. – Т: ТашГИВ, 2000. – С. 53–54. (See more: Yovkochev Sh.A. Politicization of Religion and the Problem of Islamic Extremism in Modern Egypt. Dissertation of a PhD (Political Science). -T: TSIOS, 2000. – P. 53 54.)

5 Ахмедов В.М. Армия и политика в современной Сирии. Армия и власть на Ближнем Востоке: от авторитаризма к демократии (сборник статей). – М., 2002. – С. 154. (Akhmedov V.M. Army and politics in modern Syria. Army and power in the Middle East: from authoritarianism to democracy (collection of articles). – М., 2002. – P. 154.)

*Zamonaviy Misr tarixida 1 yil davlatni boshqargan M.Mursi (2012 2013)dan tashqari Respublikaning barcha prezidentlari aynan zobitlar orasidan yetishib chiqqan: M.Najib, J.Nosir, A.Sadat va H.Muborak, Abdulfattoh as-Sisi.

*Suriya 1946-yilda siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritganidan boshlab milliy qurolli kuchlar mamlakat siyosiy tizimida hal qiluvchi unsur (element)lardan biriga aylandi. 1970-yilda Hafiz Asadning hokimiyatga kelishi bilan Suriya qurolli kuchlari davlat hokimiyatining mustahkam tayanchiga aylandi. Hozirgi kunda Prezident Bashar al-Asad davrida ham armiya mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida hal qiluvchi rol o'ynab kelmoqda.

tuzilmalar paydo bo'lishini to'xtatib qoldi. Soxta demokratik marosimlar esa jamiyatda qaror topgan avtoritar amaliyotni almashtira olmadi”6.

Ko'plab mutaxassislar tomonidan Misr va Suriyaning harbiy prezidentlari tomonidan o'rnatilgan avtoritar rejimlar demokratik va fuqarolik institutlarning shakllanishi va rivojlanishiga eng katta to'siq sifatida baholab kelinmoqda. Ularning fikricha, Misr va Suriyada demokratik institutlarning to'liq shakllanmaganligi hamda huquqiy davlatning zaifligi aholining jamiyatdagi muammolar yechimini islom dinidan izlashga, yoshlar o'rtasida diniy kayfiyatning yanada ko'tarilishiga, pirovardida islom dinining siyosiy lashuvi hamda aholining radikalashuviga ta'sir ko'rsatgan omillardan biri bo'lib xizmat qilgan.

Biroq mazkur fikrga qarshi chiquvchi mutaxassislar ham yo'q emas. Xususan, N.Abdullayev “ayrim rivojlangan davlatlar tomonidan “mamlakatda demokratiyaning yo'qligi jamiyatning radikalashuviga olib keladi”, degan tezis arab davlatlaridagi demokratik jarayonlar va ularning xususiyatlariga noto'g'ri yondashuv sababli turli doiralarda ilgari surib kelinmoqda”, deya hisoblaydi. Uning fikricha, XX asr o'rtalaridan boshlab arab davlatlari ichki siyosatining muhim elementlaridan biri jamiyatni demokratlashtirish masalasi bo'lib, arab davlatlarida barcha jamiyatlar uchun mos keladigan demokratiya modelining mavjud emasligi hamda shoshilinch va har tomonlama tayyorlanmay mamlakatda keng demokratiyaning joriy etilishi kutilmagan oqibatlarga olib kelgan va yuqoridagi tezisning shakllanishiga zamin yaratgan7.

V.V.Razumnyy masalaning boshqa jihatiga e'tibor qaratadi. Xususan, u Misr va Suriyaning harbiy hukumatlari tomonidan ko'rilgan qat'iy choralar islom dini siyosiy lashuvining kuchayishi hamda radikal ekstremistik guruhlar faoliyati kengayishining oldini olganligini ta'kidlaydi: “1980–90-yillarda arab mamlakatlari harbiy elitasi vakillari islomlashuvning kuchayishiga asosiy to'siq bo'ldi. Bu, ayniqsa, ekstremistlarning isyon ko'tarishga bo'lgan urinishlari qattiq bostirilgan Suriya va Misrda yaqqol namoyon bo'ldi. Davlatlar boshidagi armiya generallari bu arab davlatlarining dunyoviy taraqqiyot yo'lining kafiligiga aylandi”8. Uning yuqoridagi fikrlariga ikki mamlakatda harbiy avtoritar rejimlarning kuch tuzilmalariga tayangan holda olib borgan kurashi radikalizm va ekstremizmning butunlay yo'q bo'lishiga olib kelmaganligi, faqatgina ekstremistik va terrorchi guruhlar faoliyatini ma'lum muddat jilovlab turganligini qo'shimcha qilsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

“Favqulodda holat to'g'risida”gi qonun. Mutaxassislar Misr va Suriyada uzoq yillar davomida “Favqulodda holat to'g'risida”gi qonun asosida joriy qilib kelingan favqulodda holat rejimi aholining radikalashuviga ta'sir ko'rsatganligini ta'kidlaydilar9. Ularning bunday xulosaga kelishiga ma'lum asoslar bor, albatta.

6 Ахмедов В.М. Армия и проблемы демократизации на Арабском Востоке. // Институт Ближнего Востока. 28.05.2003. – URL: <http://www.iimes.ru/?p=2942> (Akhmedov V.M. Army and problems of democratization in the Arab East. // Institute of the Middle East. May 28, 2003. –URL: <http://www.iimes.ru/?p=2942>)

7 Batafsil qarang: Abdullayev N.A. Arab mamlakatlaridagi siyosiy jarayonlarning ayrim jihatlari borasida. // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. – T., 2019. -№ 1. – B. 62–66. (Abdullayev N.A. About some aspects of political processes in Arab countries. // Social sciences in Uzbekistan. – T., 2019. -No. 1. – P. 62–66.)

8 Разумный В. В. Арабо-израильская война 1973 года: региональные и глобальные последствия // Донецкие чтения 2018: образование, наука, инновации, культура и вызовы современности. – 2018. – С. 25. (Razumnyy V.V. The Arab-Israeli war of 1973: regional and global consequences // Donetsk students 2018: education, science, innovation, culture and modernity. – 2018. – P.25.)

9 Auf, Yusuf. The State of Emergency in Egypt: An Exception Or Rule? Atlantic Council, 02 February, 2018. // <https://www.atlanticcouncil.org/blogs/menasource/the-state-of-emergency-in-egypt-an-exception-or-rule/>; Яна каранг: Ёвкочев Ш.А. Политизация религии и проблема исламского экстремизма в современном Египте: дис. ... канд. полит. наук. – Т: ТашГИВ, 2000. – С. 55. (Yovkochev Sh.A. Politicization of Religion and the Problem of Islamic Extremism in Modern Egypt. Dissertation of a PhD (Political Science). – T: TSIOS, 2000. – P. 55.)

Xususan, Misr 1952-yilgi harbiy to'ntarishdan beri o'nlab yillar davomida davlat qonunchiligini buzish deb hisoblangan ko'plab qoidalar va istisno qonunlar bilan boshqarilib kelindi. Ular orasida eng mashhuri – “Favqulodda holat to'g'risida”gi qonun hisoblanadi. 1981-yilda Anvar Sadatga qilingan suiqasddan so'ng, dastlab, vaqtinchalik chora sifatida joriy qilingan favqulodda holat rejimi keyinchalik Husni Muborakning avtoritar boshqaruvi barqarorligini ta'minlovchi me'yor va mustahkam ustunga aylandi. Misrda favqulodda holat rejimi Husni Muborak davrida 30 yildan ortiq*, Abdulfattoh as-Sisi davrida esa o'rtada tanaffuslar bilan 2021-yil oktabr oyiga qadar* joriy qilindi. Uzoq yillar davomida mamlakatda favqulodda holat rejimining joriy qilib kelinishiga ekstremistlarning faollashuvi hamda terrorchilik xurujlarining ortishi sabab sifatida ko'rsatilsa-da, bu faqat masalaning bir tomoni, xolos. Boshqa tarafdin, mazkur qonunga ko'ra, prezident va uning hukumati keng ko'lamli vakolatlarga ega bo'ldi. Misol uchun, mamlakat prezidenti (yoki u ruxsat bergan shaxs) har qanday ommaviy huquqbuzarliklarni, shu jumladan jinoiy qonunlar va jinoiy jazolarni o'z ichiga olgan boshqa qonunlar kabi jinoiy huquqbuzarliklarni ham davlat xavfsizlik sudlariga yuborishi mumkin edi. Bundan tashqari, prezident favqulodda davlat xavfsizligi sudlarining hukmlarini ratifikatsiya qilar edi. Bu vakolat unga hukmni tasdiqlash yoki bekor qilish, jazoni kamaytirish yoki sud muhokamasini boshqa sudga o'tkazish huquqini berar edi. Nihoyat, prezident har qanday xabar va barcha turdagi nashrlar, gazetalalar, tasvirlar va barcha ifoda shakllari va e'lonlar nashr etilishini nazorat qilish, materiallarini musodara qilish, savdo shaxobchalarini yopish huquqiga ham ega edi.

Misrlik huquqshunos Yusuf Auf fikricha, “Misr hukumatining istisno qonunlarni bir necha oy va yillar davomida amalga oshirishda davom etishi uning jamoat xavfsizligiga erishish va qonunbuzarlarning oldini olishda davom etayotgan muvaffaqiyatsizligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, ushbu istisno qonunlarni joriy etish bilan jamoatchilik huquq va erkinliklarini, ayniqsa, siyosiy muxolifatni ta'minlash o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud. Misr sahnasi shuni ko'rsatadiki, ushbu istisno qonunlar, harbiy va maxsus tribunallar ostida har qanday muxolifat va siyosiy faollik oldida barcha eshiklar yopiq. Bu albatta, zo'ravonlik va ekstremizmning ko'payishining asosiy omilidir”¹⁰.

Misrda bo'lgani kabi Suriyada ham “Favqulodda holat to'g'risida”gi qonun bilan bog'liq siyosiy vaziyatni aynan takrorini ko'rishimiz mumkin. Suriyada 1963-yilda Arab Sotsialistik Uyg'onish partiyasi (BAAS)ni hokimiyatga olib kelgan harbiy to'ntarishdan keyin joriy qilingan “Favqulodda holat to'g'risida”gi qonun jamiyat hayotining deyarli har qanday sohasida hukumat vakolatlarini kengaytirishni ko'zda tutar edi. Mamlakatda o'rnatilgan favqulodda holat rejimi hukumatga odamlarni hibsga olish, ommaviy axborot vositalariga senzura qo'yish imkonini berar edi. Mazkur qonun Suriyada uzoq yillar davomida hukumatga odamlarni kuzatish, ularni aybsiz hibsga olish va huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan so'roq qilish imkoniyatini

* Misrda Husni Muborak davrida favqulodda holat rejimi 1981-yildan to 2012-yilning 31-mayiga qadar amalda bo'lib kelgan va mamlakat prezidenti tomonidan har ikki yilda bir marta yangilanib borilgan.

* 25-yanvar inqilobidan keyin 2012-yil iyunidan to 2013-yil 14-avgustigacha bo'lgan 13 oylik muddatda misrliklar favqulodda holat rejimisiz yashagan. 2013-yil 14-avgustda 90 kun davom etgan favqulodda holat e'lon qilingan. 2014-yil oktabr oyida Abdulfattoh as-Sisi teraktdan so'ng Shimoliy Sinayning keng hududlarida favqulodda holat e'lon qiladi. Bu favqulodda holat 2017-yilning apreligacha amalda bo'ldi. 2017-yilning aprel oyida cherkov portlashlaridan so'ng yana favqulodda holat e'lon qilinib, 2021-yil oktabr oyiga qadar har uch oyda bir marta uzaytirib borildi.

¹⁰ Auf, Yusuf. The State of Emergency in Egypt: An Exception Or Rule? Atlantic Council, 02 February, 2018. // <https://www.atlanticcouncil.org/blogs/menasource/the-state-of-emergency-in-egypt-an-exception-or-rule/>.

berdi hamda davlat hokimiyati fuqarolar hayotining deyarli barcha jabhalarida kengaytirildi¹¹. 2011-yilda Suriyada “Arab bahori” voqealari boshlangach, xalq namoyishi ishtirokchilari tomonidan qo‘yilgan talablardan biri – mamlakatda qariyb 50 yildan beri davom etib kelayotgan favqulodda holat rejimini tugatish haqida bo‘ldi. Ommaviy noroziliklar boshlangandan bir oydan ortiqroq vaqt o‘tgach, prezident Bashar Asad favqulodda holat rejimini bekor qilish to‘g‘risidagi farmonni imzolaydi¹².

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Misr va Suriyada ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning o‘z vaqtida bartaraf etilmaganligi radikalizm va ekstremizmning keng yoyilishi hamda siyosiy islom tarafdorlarining safi yanada kengayishi kuzatildi. Ayniqsa, XX asr oxiri – XXI asr boshlarida diniy ekstremizm va radikalizm ijtimoiy xavfli voqelikka aylanib, jamiyatning, asosan, savodsiz va kam ta‘minlangan qatlamiga ta‘sir o‘tkazdi. Shu bois ekstremizmni ma‘lum ma‘noda ichki ijtimoiy-iqtisodiy muammolar natijasi, deyish mumkin.

Professor Xalil Mona Abdul Malik yoshlarning radikallashtiruviga ta‘sir ko‘rsatayotgan iqtisodiy omillar sirasiga turmush darajasining pastligi, ishsizlik, og‘ir mehnat sharoiti, aholining savodsizligi, o‘rta ta‘limning keskin past darajasi, sifatsiz tibbiy xizmat kabilarni kiritadi¹³.

Arab davlatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, asosiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning hal etilmaganligi, mamlakat hayotida amalga oshayotgan murakkab va qarama-qarshi jarayonlar – jamiyatda taranglikning vujudga kelishiga, muxolifat, ayniqsa, ekstremistik oqimlar faoliyatining kuchayishiga, radikal kayfiyatdagi yoshlarning safi kengayib borishiga sabab bo‘ladi¹⁴.

Professor Sh.Yovqochev Misrda aholi, ayniqsa, yoshlarning diniy ekstremizm ta‘siriga tushib qolishiga sabab bo‘lgan quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni sanab o‘tadi: “yoshlar, xususan, universitet bitiruvchilari orasida ishsizlikning avj olishi, aholi turmush darajasining pastligi, ish haqi va bozordagi narx-navoning nomuvofiqligi, ayrim hududlarda ijtimoiy xizmat ko‘rsatish darajasining pastligi yoki mavjud emasligi, shuningdek, ta‘lim olish va sog‘liqni saqlash imkonining cheklanganligi”¹⁵. V.P.Yurchenko yuqoridagilarga qo‘shimcha sifatida Misrdagi ijtimoiy holatni murakkablashtirgan va uni tanazzul holatiga keltirgan omillar sirasiga aholi sonining tezlik bilan o‘ssishi, aholi o‘rtasidagi mol-mulk tengsizligi, kambag‘allar hayotining yana ham og‘irlashuvi, ularning nochorlikka bo‘lgan ta‘sirchanligining oshishi kabilarni kiritadi¹⁶.

V.M.Ahmedov Suriyada ekstremizm va radikalizmning keng yoyilishiga ta‘sir ko‘rsatgan quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni qayd etadi: “ekstremistlar faoliyatining kuchayishiga mamlakatdagi iqtisodning yomonlashishi, aholi yashash darajasining pasayishi, ijtimoiy

11 Syria to lift decades-old emergency law // 19.04.2011. -URL: <https://www.aljazeera.com/news/2011/4/19/syria-to-lift-decades-old-emergency-law>

12 Президент Сирии подписал указ об отмене режима чрезвычайного положения. // Интернет-издание ria.ru. 21.04.2011. - URL: <https://ria.ru/20110421/366893215.html> (The President of Syria signed a decree lifting the state of emergency. // Internet edition ria.ru. 04/21/2011. - URL: <https://ria.ru/20110421/366893215.html>)

13 “Ko‘plab mamlakatlarda yoshlarning radikallashtiruviga bir qancha omillar ta‘sir ko‘rsatmoqda” – Xalil Mona Abdul Malik xonim... // Internet-nashr Uza.uz 21.10.2022. // - URL: <https://uza.uz/posts/417935> (“Several factors influence the radicalization of youth in many countries” - Khalil Mona Abdel Malik... // Uza.uz Internet edition 10/21/2022. // - URL: <https://uza.uz/posts/417935>)

14 Юрченко В.П. Египет проблемы национальной безопасности (1952–2002 гг.). – М., 2003. – С. 252. (Yurchenko V.P. Egypt problems of national security (1952–2002). – М., 2003. – P. 252.)

15 Ёвкочев Ш.А. Политизация религии и проблема исламского экстремизма в современном Египте: дис. ... канд. полит. наук. –Т: ТашГИВ, 2000. – С. 56–57. (Yovkochev Sh.A. Politicization of Religion and the Problem of Islamic Extremism in Modern Egypt. Dissertation of a PhD (Political Science). – Т: TSIOS, 2000. – P. 56–57.)

16 Юрченко В.П. Египет проблемы национальной безопасности (1952–2002 гг.). – М., 2003. – С. 254. (Yurchenko V.P. Egypt problems of national security (1952–2002). – М., 2003. – P. 254.)

taranglikning ko'payishi sababdir... Ekstremizmning kuchayishiga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan boshqa omillar qatorida yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda, yoshlar o'rtasida ishsizlikning kuchayishi, ijtimoiy ta'minotning yomonlashuvi, hukumat tomonidan aholiga, ijodkor ziyolilarga mafkuraviy tazyiq kabilarni ajratib ko'rsatish mumkin. O'rta sinfnining yemirilishi oqibatida aholi eng kambag'al qatlamlarining kengayishi kabi ijtimoiy holatlar mintaqaning bir qator davlatlari tomonidan mahalliy diniy tashkilotlar va ularning yetakchilarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatni amalga oshirish uchun qilingan siyosiy o'yinida vosita sifatida qo'llanardi. Bu bir qator mamlakatlar, shu jumladan, Suriyadagi ahvoning yomonlashishiga sabab bo'ldi"¹⁷.

Shuningdek, Suriyada o'nlab yillar davomida sodir bo'lgan jangu jadallar davlatning mudofaa xarajatlarini oshirib yubordi va byudjetning deyarli yarmini tashkil qildi. Mamlakat iqtisodiyotining yomonlashuvi hukumatga nisbatan norozilikni qo'zg'atuvchi omil bo'lib xizmat qildi va ko'pincha tartibsizliklarning yuzaga kelishi, "odilona, islomiy boshqaruvni" yaratish g'oyalarining tug'ilishiga olib keldi. Suriya iqtisodiyotidagi turg'unlikdan chiqishga yordam bera oladigan iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoniga esa sunniy burjuaziya kuchayishidan qo'rqqan hukmron alaviylar qatlami tomonidan ataylab to'sqinlik qilindi. S.Manukyan ta'kidlaganidek: "mamlakatda tanlash erkinligi mavjud bo'lmagan bir sharoitda, ijtimoiy adolat va totuvlik haqidagi populistik shiorlarni oddiy odamlar uchun tushunarli tarzda ilgari surayotgan fundamentalistik tashkilotlarning omma orasida kuchli qo'llab-quvvatlanishi ajablanarli emas. Zero, qonuniy muxolifat bo'lmaganda din xalqning intilishlari va kayfiyatini ifodalashning yagona yo'li hisoblanadi"¹⁸.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, arab mamlakatlaridagi iqtisodiy qiyinchiliklardan aziyat chekkan aholi qatlamlarida voyaga yetgan yoshlar ijtimoiy yordam dasturlarini keng qo'llaydigan ekstremistik guruhlar ta'siriga tushib qolgan. Ma'lumki, diniy tashkilotlar ijtimoiy ehtiyojlar xususida qayg'urishadi, bu narsa ular faoliyatining bir ko'rinishi hisoblanadi. Islomiy guruhlarining yoshlar, shuningdek, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari orasida mashhurligining asosiy sabablaridan biri ham ularning arzon va sifatli xizmat ko'rsatishi, deb aytish mumkin. Shu sabab aholi, asosan, yoshlar davlat bera olmaydigan himoya va yordamni diniy tuzilmalardan izlagan. K.Shermuhamedov "Musulmon birodarlar" faoliyatining jadallashuviga mamlakatning iqtisodiy tang ahvoli sabab bo'lganligi, savodsiz, diniy mutaassiblikka moyil, aksariyat kambag'al xalq uyushma tarafdori bo'lganligini qayd etadi¹⁹.

Darhaqiqat, Misrda ekstremistik tashkilot faollari ko'p hollarda muqobil ijtimoiy ta'minot tizimini taklif qilardilar. Bu holat ularga hukumatni tanqid qilish imkoniyatini ham yaratib berardi. Chunki amalda ko'rsatilgan yordamlari orqali ular hukumatning fuqarolar ehtiyojini o'z vaqtida qondira olmasligini namoyon etishga urinar edilar²⁰. Yaqqol misol sifatida 1992-yil 12-oktabr sanasida sodir bo'lgan "Qohira zilzilasi"dan keyingi voqealarni yodga olish kifoya. 500 dan ortiq odamning hayotiga zomin bo'lgan va 50.000 kishini uy-joysiz qoldirgan "Qohira

17 Ахмедов В. Сирия на рубеже столетий. Власть и политика. – М., 2003. – С. 35–36. (Akhmedov V. Syria at the turn of the century. Power and politics. – М., 2003. – P. 35–36.)

18 Манукян С. Политический ислам Сирии: возникновение и перспективы. Арабские страны Азии и Северной Африки. – М., 2004. Вып. 5. – С. 247–258. (Manukyan S. Political Islam in Syria: emergence and prospects. Arab countries of Asia and North Africa. – М., 2004. Issue. 5. – P. 247–258.)

19 Qarang: Shermuhamedov K.XX asming 70–80-yillarida "Musulmon birodarlar" uyushmasining faoliyati. // Imom Buxoriy saboqlari. 2017 - №2. – B. 22–23. (See: Shermukhamedov K. Activities of the Muslim Brotherhood in the 1970s-1980s. // Lessons of Imam Bukhari. 2017 - No. 2. – P. 22–23.)

20 Юрченко В.П. Египет проблемы национальной безопасности (1952–2002 гг.). – М., 2003. – С. 252-253. (Yurchenko V.P. Egypt problems of national security (1952–2002). – М., 2003. – P. 252–253.)

zilzilasi”dan so‘ng, “Musulmon birodarlar” qurbonlarga yordam berishni tashkillashtirishni o‘z zimmlariga oldilar va bu borada sustkashlik bilan harakat qilgan davlat byurokrtiyasidan epchilroq harakat qildi²¹. Mutaxassislar “Musulmon birodarlar”ning 90-yillardagi faoliyatining asosini hayriya va ijtimoiy yordam tashkil etgani, ular doimiy ravishda aholining ehtiyojlari bilan qiziqib, kambag‘allar va ko‘p bolali oilalarga moddiy yordam beruvchi idoralar tuzishgani, shuningdek, masjidlar, maktab va kasalxonalar qurishganini qayd etadilar²².

Nafaqat arab dunyosi, balki jahon mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ekstremistik tashkilotlar o‘z maqsadlari uchun, asosan, yoshlarni tanlaydi va asosiy e‘tiborni ularga qaratadi. Masalaning mazkur jihatiga e‘tibor qaratgan misrlik olimi Xalil Mona Abdul Malik uni quyidagicha izohlaydi: “Radikal diniy oqimlar ijtimoiy adolatsizlikdan haddan tashqari qizib ketgan yoshlarning hissiy quvvatidan foydalanib, ularni o‘z saflariga jalb etish uchun, ularga global adolatsizlikka qarshi ezgu kurash yo‘lini va‘da qilishmoqda. Ularning fikricha, bunday adolatsizlik, qoida tariqasida ma‘lum bir mamlakat yoki butun mintaqaning davlat rejimlari tomonidan ifodalanadi”²³.

Aholi sonining tez o‘shishi Misr va Suriya aholisining keskin yosharishiga olib keldi. Natijada yoshlar orasida ishsizlik muammolari yuzaga keldi. Bu sohada ishchi kuchining xorijga chiqib ketishi vaziyatni yumshatsa ham, aslida ishsizlik muammosini hal qilmaydi. Yoshlar esa insoniyatning eng harakatchan hamda eng oson ta’sirlanadigan qismi bo‘lib, aynan ularga maqsad va kelajakka ishonch kerak. Katta hayotga endi kirib kelayotgan, hayotiy maqsadlarini aniq belgilab olmagan arab yoshlari ekstremistik tashkilotlarning asosiy “nishon”iga aylanib qoldilar. Shuning uchun ekstremistik guruh a‘zolarining katta qismini 17 –26 yoshdagi yoshlar tashkil etib, bu radikal g‘oyalar va muammolarni hal etishda yoshlar kuchiga tayanishini anglatadi.

O‘tgan asrning 90-yillarida Misrdagi ekstremistlar o‘zlaridan oldingilardan yoshroq bo‘lib, ularning ko‘pchiligi Yuqori Misrning qoloq hududlaridan, kichik shaharchalardan kelib chiqqan edi. Masalan, 1970-yilda Misrda hibsga olingan jangarilarning o‘rtacha yoshi 27 yosh bo‘lsa, 90-yillarda 21 yoshni tashkil etgan. Oldingi o‘n yillik bilan taqqoslanganda, ekstremistlar orasida maktab va kollejni endi tugatganlar soni oshib (80-yillarda 36% va 90-yillargacha 71%), oliy ta‘lim bitiruvchilari soni kamaygan (59% dan 21% gacha). Ekstremistlar qatorida qashshoq hududlar aholisi 36% ni (ilgari 16%), qishloq aholisi 18% (7%), mayda va o‘rta shaharlar aholisi – 31% (43%), yirik shaharlar aholisi 15% (34%) ni tashkil qilgan²⁴. Misrda 90-yillarda amalga oshirilgan qo‘poruvchilik harakatlari ishtirokchilarining 53% ni talabalar, universitet va institut bitiruvchilari tashkil etgan²⁵.

21 Кепель Ж. Джихад: Экспансия и закат исламизма / Пер. с фр. В.Ф. Денисова. -М: Ладомир, 2004. – С. 267. (Kepel J. Jihad: The Expansion and Decline of Islamism / Translation from French Denisov V.F. – M: Ladomir, 2004. – S. 267.)

22 Qarang: Юрченко В.П. Египет проблемы национальной безопасности (1952–2002 гг.). – М. 2003. – С. 268–269. (See: Yurchenko V.P. Egypt problems of national security (1952–2002). – M., 2003. – P. 268–269.)

23 “Ko‘plab mamlakatlarda yoshlarning radikalashuviga bir qancha omillarta’sir ko‘rsatmoqda” – Xalil Mona Abdul Malik xonim... // Internet-nashr Uza.uz 21.10.2022. // - URL: <https://uza.uz/posts/417935> (“Several factors influence the radicalization of youth in many countries” - Khalil Mona Abdel Malik... // Uza.uz Internet edition 10/21/2022. // - URL: <https://uza.uz/posts/417935>)

24 Юрченко В.П. Египет проблемы национальной безопасности (1952–2002 гг.). – М., 2003. – С. 256. (Yurchenko V.P. Egypt problems of national security (1952–2002). – M., 2003. – P. 252–253.)

25 Ёвкочев Ш.А. Политизация религии и проблема исламского экстремизма в современном Египте: дис. ... канд. полит. наук. – Т: ТашГИВ, 2000. – С. 57. (Yovkochev Sh.A. Politicization of Religion and the Problem of Islamic Extremism in Modern Egypt. Dissertation of a PhD (Political Science). – T: TSIOS, 2000. – P. 57.)

Ta'kidlash joizki, Husni Muborakning 30 yillik humronligiga nihoya yasagan "Arab bahori" voqealarida ham misrlik yoshlar siyosiy faollik ko'rsatdilar. Misrda 1985–1990-yillarda tug'ilish sur'atlarining ortishi va revolutsiyalar davriga kelib aholi demografik strukturasi yoshlar ulushining ko'payishi – bu ommaviy harakatlarda yoshlarning keng jalb etilishini ta'minladi. Aytish mumkinki, 1990-yildan boshlab ishsizlik darajasi o'zgarmay qolgan bo'lsa, ular orasida yoshlarning nisbati ikki barobar ortdi, xususan, 20–24 yoshliklar va ular umumiy 2,5 mln. ishsizning 1 mln. dan ortig'ini tashkil qildi. Ushbu ishsiz yoshlarning 43% o'z bilimlari va malakalariga mos ish topa olmagan oliy ma'lumotlilar edi. Demak, revolutsiyaning asosiy kuchini oliy ma'lumotli ishsiz yoshlar tashkil qilgan²⁶.

Dunyoda ketayotgan demokratlashuv va liberallashtirish jarayonlarini kuzatgan Misr yoshlarida o'z atrof-muhitidan norozilik vujudga keldi. Mamlakatda yangi informatsion va kommunikatsion texnologiyalar keng omma tomonidan foydalanishning boshlanishi bu tarmoqning hokimiyat nazoratidan chiqib ketishiga olib keldi. Youtube va Facebook saytlarida misrlik yoshlar mamlakat siyosiy kelajagiga befarq bo'lmaslik va yangi hokimiyat shakllanishida faol ishtirok etishga chaqirdilar²⁷. Keyingi voqealar shuni ko'rsatdiki, dunyoviy rejimdagi Muborak rejimi qulab, o'rniga fundamentalistik qarashli "Musulmon birodarlar" hokimiyat tepasiga keldi.

"Arab bahori" voqealari Yaqin Sharq hamda Shimoliy Afrika arab mamlakatlarida milliy xavfsizlikni ta'minlash borasida yoshlarga oid davlat siyosatining favqulodda ahamiyatini ko'rsatib berdi. Jahon matbuotida, Misrda "Arab bahori" voqealari aksariyat hollarda kam ta'minlanganlik, korrupsiya, ishsizlik kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillar tufayli yuzaga kelgani uqtiriladi²⁸. Professor Z. Munavvarov "Arab bahori" va Markaziy Osiyo xavfsizligi muammolari" nomli maqolasida "Arab bahori"ni tezlashtirgan quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni sanab o'tadi²⁹:

- 2008-yildan boshlab AQSH va Yevropadagi iqtisodiy faollikning sekinlashuvi (iqtisodiy retsessiya) ta'sirida arab mamlakatlari iqtisodiyoti katta zarar ko'rganligi;
- keng ijtimoiy qatlamlar hayotining sezilarli darajada og'irlashgani;
- hukmron elitalar tomonidan yangi sharoit taqozo etayotgan ijtimoiy himoya choralari ko'rilmaganligi;
- hokimiyatning yuqori bo'g'inlarida korrupsiya, urug'-aymoqchilik va oilaviylik avj olib ketganligi.

2011-yilda arab davlatlarida boshlangan norozilik to'lqini Suriyaga ham yetib keldi. Suriyadagi aholining noroziliklariga ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz, korrupsiya va real demokratik

26 Hasanov A. Misrda "Ikhvan al-muslimin"ning hokimiyat tepasiga kelishi va qulashi // Xorijiy Sharq mamlakatlari tarixiy jarayonlari va ularni o'rganishning dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDSHI, 2015. – B. 11. (Hasanov A. The coming to power and fall of "Ikhvan Al-Muslimin" in Egypt // Historical processes of foreign Eastern countries and current problems of their study. Proceedings of the scientific-practical conference. – T.: TSIOS, 2015. – P. 11.)

27 Muhammadsidiqov M.M. Afrika arab davlatlarida dinning siyosiy lashuvi va uning siyosiy jarayonlarga ta'siri: siyosiy fan doktori... dis. – T.: TDSHI, 2018. – B. 158. (Muhammadsidiqov M.M. Politicization of religion in African Arab countries and its impact on political processes. Dissertation of a DSc (Political Science). – T.: TSIOS, 2018. – P. 158.)

28 Qarang: O'sha manba, o'sha joyda. (See: Ibid., – P. 158.)

29 Munavvarov Z.I. "Arab bahori" va Markaziy Osiyo xavfsizligi muammolari. // Xorijiy Sharq mamlakatlari tarixiy jarayonlari va ularni o'rganishning dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDSHI, 2016. – B. 81. (Munavvarov Z.I. "Arab spring" and security problems in Central Asia. // Historical processes of foreign countries of the East and actual problems of their study. Materials of the scientific-practical conference. – T.: TSIOS, 2016. – P. 81.)

erkinliklar yoʻqligi kabi ichki omillar sabab boʻldi. Inqilobgacha mamlakat bir necha yillar davomida dahshatli qurgʻoqchilikdan aziyat chekkan edi. Aholi jon boshiga daromad 5000 AQSH dollaridan 2900 AQSH dollariga tushdi. Qurgʻoqchilik natijasida qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishmovchiligi sodir boʻldi, aholi qishloqlarni tashlab shaharlarga koʻchib oʻtishdi. Ammo shaharlarda ham ularni yaxshi hayot kutib turgani yoʻq edi. Davlat oʻz fuqarolarining asosiy ehtiyojlarini qondira olmasligi, adolatsizlik, korrupsiya, etnik nizolar – bularning barchasi Suriyada siyosiy va diniy fuqarolar urushi bilan yakunlangan inqilobga olib keldi³⁰.

Misrlik olim, professor Iyman Rajab “yoshlarning radikallashuviga faqatgina iqtisodiy omillar sabab boʻlmaydi”, deb hisoblaydi. Uning xulosasiga koʻra: “diniy, iqtisodiy, ijtimoiy va shaxsiy sabablarning qorishmasi ularni koʻproq radikallashishga undaydi. Bunday sabablar qorishmasiga nafaqat hukumat tomonidan, balki fuqarolar tomonidan ham qoʻllaniladigan turli strategiyalar orqali qarshi kurashish lozim. Faqat iqtisodiy tomonga eʼtibor bersak, bir qator yoshlar, nafaqat Misrda, balki butun dunyoda, boy oilalardan boʻlgani, biror ishda ishlashi, hatto ularning baʼzilari yuqori sifatli va mavqeli ishlarda ishlashlaridan qatʼi nazar, radikal qarorlarga keladilar. Radikallashuvning hozirgi toʻlqini yangicha yondashuvni talab qilmoqda, bu yondashuv ularni radikal tashkilotlarga undaydigan murakkab omillar tizimini oʻzida aks ettira olishi kerak”³¹.

“Arab bahori” voqealaridan keyin Yaqin Sharq mamlakatlari milliy va mintaqaviy xavfsizlikka tahdid sifatida ekstremizm va terrorizmning yangi oʻzgargan tabiatda tiklanishiga yordam bergan murakkab oʻtish davriga kirdi. AQSHning terrorizm boʻyicha yillik hisobotiga koʻra, Yaqin Sharqda birgina 2013-yilda “terrorchilik faoliyatining sezilarli darajada” oʻsishi sodir boʻlgan³², bu esa mazkur muammoga qarshi kurash mintaqadagi koʻplab mamlakatlar uchun hamon ustuvor vazifa boʻlib qolayotganini anglatadi. Endilikda, terroristik tashkilotlarga jalb etilayotganlar toifasini ishsiz yoshlar emas, balki oʻrta tabaqa vakillaridan boʻlgan yaxshi maʼlumotli, yaxshi maoshga ega boʻlgan, munosib ishga joylashayotganlar tashkil etmoqda. Bu voqelik koʻpgina adabiyotlarda va Amerika rasmiylari orasida “qashshoqlik – radikalizm va terrorizmning harakatlantiruvchi kuchi” ekanligi haqidagi hukmron argumentga qarshi chiqadi³³. Zero, AQSHning sobiq Davlat kotibi General Kolin Pauell shunday degan edi: “Biz faqat bitta terrorchi yoki bitta terrorchi tashkilot bilan toʻxtab qololmaymiz; biz borib butun tizimni yoʻq qilishimiz kerak. Biz qashshoqlik ortidan borishimiz kerak”³⁴.

Misr va Suriyada radikalizm va ekstremizm kuchayishining tashqi omillari XX asr oxiri – XXI asr boshida Misr va Suriyada radikalizm, ekstremizm va terrorizmning keng yoyilishiga sabab boʻlgan tashqi omillarga – Arab-Isroil urushlaridagi magʻlubiyatlar, 1978–1979-yillarda Misr va Isroil oʻrtasida imzolangan tinchlik

30 Samojedny M. The Muslim Brotherhood in Syria and its role in Syria's current situation // Teka Komisji Politologii i Stosunków Międzynarodowych. – 2017. – T. 12. – №. 1. – P.102.

31 Egypt Confronts Terrorism. // UNIPATH. Oct 25, 2019. – URL: <https://unipath-magazine.com/egypt-confronts-terrorism/>

32 US Department of State, Bureau of Counterterrorism, Annual Country Reports on Terrorism, Report of 2013, April 2014.

33 Ragab E. Complex Threat: Challenges of Countering Terrorism in the Middle East after the Arab Revolutions // Countering Radicalisation and Violent Extremism Among Youth to Prevent Terrorism. – IOS Press, 2015. – P. 101–112.

34 Batafsilqarang: Jake Harriman. Linking Extreme Poverty and Global Terrorism. The New York Times, March 13, 2012. // <https://archive.nytimes.com/kristof.blogs.nytimes.com/2012/03/13/linking-extreme-poverty-and-global-terrorism/>

shartnomalari, 1979-yilda Eronda sodir bo'lgan islom inqilobi va "islom inqilobi eksporti" g'oyasi, Afg'on urushi hamda mazkur davrda jahondagi terrorchilik harakatlarining faollashuvi, AQSH va uning ittifoqchilari tomonidan Iroqqa uyushtirilgan harbiy intervensiya, shuningdek, Yaqin Sharqdagi boshqa harbiy mojarolarni sanab o'tish mumkin.

Arab-Isroil urushlari. "Sovuq urush" davrida Yaqin Sharqda tashqi kuchlar asosiy rolni o'ynagan holda, mintaqada asosiy ikki mafkura – kapitalizm va sotsializmning kurash maydonlaridan biriga aylandi. Bu davrda AQSH va sobiq Ittifoq (SSSR) tomonidan mintaqada ikki qarama-qarshi mafkurani qo'llab-quvvatlovchi davlatlar shakllantirila boshlandi. Xususan, Isroil, Turkiya va Fors ko'rfazi arab davlatlari kapitalizmni, Misr, Suriya, Iroq*, Eron* davlatlari sobiq Ittifoq bilan yaqinlashishga harakat qildi³⁵. Aynan "Sovuq urush" davrida ikki global kuchlar o'rtasidagi qarama-qarshilik sharoitida yuz bergan Arab-Isroil urushlari Yaqin Sharq mintaqasida ekstremistik guruhlar faoliyatining yanada kengayishiga olib keldi. Radikal islom mafkurasining keng yoyilishida AQSH va uning Yaqin Sharqdagi ittifoqchilari tomonidan sobiq Ittifoqning arab davlatlariga ta'sirini kamaytirish borasida qo'llagan "sovuq urush" omili katta rol o'ynadi. Sobiq Ittifoq, o'z navbatida, AQSH va Isroilga qarshi turgan radikal millatchi tashkilotlarni qo'llab-quvvatlashga harakat qildi. Bunga ekstremistik tashkilot va harakatlarga nisbatan "ikki tomonlama standartlar"ni qo'llash amaliyoti yordam berdi³⁶.

Shuningdek, arab armiyasining 1967-yilgi "Olti kunlik urush"dagi alamli mag'lubiyati, 1973-yilgi "Oktabr urushi"dagi muvaffaqiyatsizliklari* ekstremistik guruhlarini mazkur inqirozning ichki omillarini aniqlashga undadi. Bunda "to'g'ri yo'ldan chekinish" natijasida yuz bergan arab davlatlari tanazzuli asosiy sabab sifatida ko'rsatildi. Xususan, "Musulmon birodarlar" tashkiloti bu voqeaga o'z munosabatini bildirib, "Misr jamiyatida Qur'on o'rniga ko'proq Milliy xartiya atamasi (Al-miysoq al-qavmiy) ishlatilgani, shuning bilan birga dahriy mamlakat hisoblangan sobiq Ittifoq bilan ikki mamlakatning do'stlashuviga Allohning g'azabi kelib, jazo tariqasida Isroil agressiyasini yuborgan", deb xalq orasida jar soladilar³⁷. Ularning fikricha, musulmon davlatlarining islom qadriyatlariga qaytishi, shaxsiy hamda ijtimoiy-siyosiy hayotda ularga og'ishmasdan amal qilinishigina musulmonlarni qutqarishi mumkin edi. Arab

* 1972-yilda Iroq va sobiq Ittifoq o'rtasida "Do'stlik va hamkorlik to'g'risida"gi shartnoma imzolangan. Sobiq Ittifoq 1980-yilgacha Iroqni qo'llab-quvvatlab kelgan, biroq Iroq-Eron urushi boshlangach, o'zaro munosabatlar yomonlashgan. Bunga Iroqning 1972-yilda sobiq Ittifoq bilan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini buzgan holda G'arb davlatlaridan qurol-yarog' sotib olishni boshlaganligi hamda Eronga bostirib kirishi sabab bo'lgan.

* 1980-yilda Iroqning Eronga bostirib kirishi sobiq Ittifoqni Eron bilan yaqinlashtirdi. Bunga urush tufayli sobiq Ittifoq hududidiga yaqin joyda konflikt hududining paydo bo'lishi va bu hududga G'arb davlatlarining harbiy kontingentlarining kirib kelishi, shuningdek, Eronda inqilobiy to'ntarishdan keyin G'arbg'a nisbatan agressiv qarashga ega Oyatillo Xumaynining hukumatga kelishi sabab bo'ldi.

³⁵ Karimov F. Yaqin Sharqdagi etnosiyosiy muammolar va mintaqaviy xavfsizlik masalalari: Monografiya. – T.: "Sharq" nashriyoti; Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2016. – B. 141–142. (Karimov F. Ethnopolitical problems and regional security issues in the Middle East: Monograph. – T.: "Sharq"; Tashkent State Institute of Oriental Studies, 2016. – P. 141–142.)

³⁶ Казак В.В. Ближний Восток: проблема экспансии терроризма и исламского экстремизма: 70-е–90-е гг. XX в.: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. - Владимир, 2006. С. 20. (Kazak V.V. Middle East: the problem of the expansion of terrorism and Islamic extremism: 70s–90s. XX century. Abstract of a PhD (Political Science). - Vladimir, 2006. – P. 20.)

* "Olti kunlik urush" deb nom olgan 1967-yilgi Arab-Isroil urushlarida Isroil armiyasi Misrning Sinay yarim orolini, G'azo sektorini bosib olgan. Suvaysh kanali ishdan chiqqan. Sinaydagi neft korxonalari, tog' konlari Isroil qo'lga o'tgan. Bundan tashqari, Isroil Suriyaning harbiy strategik jihatdan juda muhim bo'lgan Jo'lan tepaliklarini, Iordaniya dan Iordan daryosining g'arbiy qirg'oqlarini bosib olgan.

³⁷ Shermuhamedov K. XX asrning 70–80-yillarida "Musulmon birodarlar" uyushmasining faoliyati. Imom Buxoriy saboqlari. 2017, №2. – B. 22. (Shermukhamedov K. Activities of the Muslim Brotherhood in the 1970s–1980s. // Lessons of Imam Bukhari. 2017 – No. 2. – P. 22.)

armiyasining Isroil bilan harbiy to'qnashuvlarda ketma-ket mag'lubiyatlaridan alamzada bo'lgan arab yoshlarini keyingi siyosiy o'zgarishlar yanada junbushga keltirdi. Arab dunyosida birinchi bo'lib Misr tinchlikka erishish borasida Isroil bilan muzokaralar olib bordi.

Isroil bilan tinchlik muzokaralari. Misrda islom dini siyosiylashuvi hamda radikallashtiruviga ta'sir ko'rsatgan tashqi omillardan biri prezident Anvar Sadatning Isroil bilan tinchlik o'rnatish borasidagi tashqi siyosati edi. 1977-yilda Anvar Sadatning Isroil bilan tinchlik shartnomasini tuzish uchun Quddusga borishi uning rejimi bilan islomiy ziyolilar va diniy burjuaziya o'rtasidagi munosabatlarning buzilishiga, misrlik yoshlarning yanada radikallashtiruviga olib keldi. 1978–1979-yillarda Isroil bilan “Kemp-Devid” shartnomasining imzolanishi Misrning nafaqat arab davlatlari o'rtasida yakkalanib qolishiga, balki mamlakatda ichki siyosiy vaziyatning yanada keskinlashishiga sabab bo'ldi. Radikal diniy guruhlar Anvar Sadatning bu ishini islomga xiyonat, arablar ishiga nisbatan sotqinlik, deya baholashdi. “Musulmon birodarlar” tashkiloti Isroil bilan tuzilgan tinchlik shartnomalarini tanqid qilgan holda hokimiyatga nisbatan murosasiz, radikal muxolifatchilik mavqeyiga o'tdilar³⁸. Shuningdek, ular “Al-Azhar” ulamolarini keskin tanqid qildilar. “Musulmon birodarlar”ning fikricha, aynan shu ulamolar shariat nuqtayi nazaridan Misr va Isroil muzokaralarini yaxshilashga intilib, uning g'oyaviy tomonini tushuntirishga urinishgan³⁹.

Anvar Sadat ekstremistlar tomonidan “yahudiylar bilan sharmandali tinchlik”, deb baholangan siyosatining shubha ostiga qo'yilishiga yo'l qo'ya olmas edi. Shu sabab, “islom jamoatlari” mulklari musodara qilindi, talabalar uyushmasi tarqatib yuborildi, ularning yozgi ta'tilgohlari politsiya tomonidan yopib tashlandi. Biroq ushbu choralar mamlakatdagi yoshlarning radikallashtiruviga to'sqinlik qilolmadi. Islomiy harakatdan keskin radikal qatlamlar chiqib, ochiq-oydin islomiy davlat tashkil etish haqida baralla gapira boshladilar. Ayniqsa, “Al-Jamoa al-Islomiya” guruhi a'zolarining keskin radikallashtiruvini sodir bo'ldi. Misr xavfsizlik xizmatlari bunday burilishga hali tayyor emasdilar. Chunki bu davrgacha yangi a'zolarini nazoratli guruhlariga olish uchun “sionist dushman” aqidasi faol qo'llanilar edi⁴⁰.

1979-yilda Misr va Isroil o'rtasida tinchlik shartnomasining imzolanishi “Musulmon birodarlar”ning ikkiga – fundamentalistlar va radikal ekstremistlariga bo'linishiga olib keldi. Ikkinchisi “Al-Jamoa al-Islomiya”, “Islomiy jihat” kabi bir qancha harbiylashtirilgan terrorchilik guruhlarini tuzdi va bir qancha shov-shuvli terrorchilik hujumlarini amalga oshirdi. Ulardan eng mashhuri 1981-yil oktabr oyida prezident Anvar Sadatga qilingan suiqaqd edi⁴¹.

Misrda bo'lgani kabi Suriyada ham Isroil bilan tinchlik muzokaralari har safar hukumat siyosatidan norozilik kuchayishiga olib kelgan. Shuning uchun Suriya–Isroil tinchlik muzokaralarini o'rgangan ko'plab siyosatshunoslar, Hofiz Asad va uning yaqin doirasi haqiqatda tinchlikka intilmagan, degan xulosaga kelishgan. Chunki kelishuv radikal qarshilik paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin edi. 1991-yildan boshlab muzokaralar olib borgan Hofiz Asad

38 Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari [Matn]: Mas'ul muharrir: Z. Islomov. – T: Toshkent islom universiteti, 2017. – B. 115. (Spiritual and educational foundations of the fight against religious extremism and terrorism [Text]: Responsible editor: Z. Islamov. -Tashkent: Tashkent Islamic University, 2017. – P. 115.)

39 Said Aly A.M. Wenner M. Modern Islamic Reform Movements: The Muslim Brotherhood in Contemporary Egypt // Middle East Journal. 1982. Vol. 36. № 3. – P. 344.

40 Щегловин Ю.Б. Размышления о борьбе с терроризмом. – М., 2015. – С. 169. (Shcheglovina Y.B. Reflections on the fight against terrorism. – M., 2015. – P. 169.)

41 Фахима С. Политический ислам в Египте: причины поражения «Братьев-мусульман» и Мухаммеда Мурси // Власть. – 2014. – №. 10. – С. 113. (Fahime S. Political Islam in Egypt: the reasons for the defeat of the Muslim Brotherhood and Mohammed Morsi // Power. – 2014. – No. 10. – P. 113.)

G'arb olimlari, jurnalistlari tomonidan qilingan ijobiy bashoratlarga qaramay, hech qachon Isroil bilan tinchlik shartnomasini imzolash haqida jiddiy amaliy qadamlar tashlamagan⁴².

Eron islom inqilobi. 1979-yilda Eronda islom inqilobining g'alaba qozonishi musulmon olami davlatlaridagi ko'plab radikal islom kuchlari uchun mafkura va ruhiy madad rolini bajardi. Eron islom rahbariyati rasmiy tarzda "islom inqilobi eksporti"ni davlat tashqi siyosatining tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etadi. Uning ko'magi ostida qator amaliy tadbirlar amalga oshirilgan. Xususan, Misr, Sudan, Kuvayt, BAA, Livanda shia mazhabidagi diniy-siyosiy qurollangan guruhlar shakllantirilgan⁴³. Bundan tashqari, eronlik inqilobchilarning AQSH oldiga qo'ygan chaqirig'i siyosiy islom kuchiga ishonchni mustahkamlash uchun juda kuchli turtki bo'ldi. 1984-yilda Eron islom inqilobi g'oyalari ta'sirida vujudga kelgan "Hizbulloh" Livandagi eng nufuzli harbiy-siyosiy guruhlardan biriga aylandi⁴⁴.

Afg'on urushi. Afg'on urushi jahonda zo'ravonlik va terrorism avj olgan davrga to'g'ri keldi, mamlakatlar hamda mintaqalar xavfsizligiga eng katta tahdid manbayiga aylandi. Afg'onistondagi qaltis vaziyat mintaqalararo kengliklarda islom dinining siyosiylashuviga kuchli ta'sir ko'rsatgan omil bo'lib xizmat qildi. 1981-yil oktabrida prezident Anvar Sadatga qilingan suiqasdga aloqador bo'lgan "Al-jihad" va "Al-jamaa al-islomiya" guruhlarining ko'pgina faollariga 80-yillardayoq Afg'onistonga chiqib ketish imkoniyati beriladi. Misr hukumati tinchlik va barqarorlikka xavf soluvchi kuchlardan shu yo'l bilan qutulishni ko'zlagan edi⁴⁵. Biroq bu ekstremistlar 1979–1989-yillardagi afg'on urushida katta tajriba orttirdilar. Urushdan so'ng misrlik afg'on urushi veteranlarining (ular "arab afg'onlari" nomi bilan mashhur) bir qismi o'z vatanlariga qaytgan bo'lsa, boshqalari islom olamining barcha "qaynoq nuqtalar"iga tarqaldilar. Aynan ular XX asr oxirida Misrda sodir bo'lgan qo'poruvchilik harakatlari hamda hukumat a'zolariga qilingan suiqasdlarda faol ishtirok etishdi, bu qo'poruvchilik harakatlari 1998-yilda hukumat bilan bir tomonlama "yarashuv" e'lon qilinganidan keyin ham davom etdi. Hattoki, 2001-yil 11-sentabrda AQSHda sodir etilgan terrorchilik harakatlarida ham faol ishtirok etdilar⁴⁶.

Mintaqaviy urush hamda harbiy mojarolar. XX asr oxirida Yaqin Sharqdagi diniy tashkilotlarning radikallashuviga ta'sir ko'rsatgan tashqi omillar haqida so'z yuritganda, yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda arab dunyosidagi notinchliklarni ham alohida ta'kidlash joiz. Xususan, 1991-yil oxirida misrlik ekstremistlar faoliyatida keskin kuchayish kuzatilishiga muayyan darajada Jazoir, Tunis, Sudan, Kuvayt, Iordaniyadagi voqealar ham ta'sir ko'rsatib, ushbu arab davlatlaridagi mahalliy radikallar faollashgan edi⁴⁷.

42 Манукян С. Политический ислам Сирии: возникновение и перспективы. Арабские страны Азии и Северной Африки. М., 2004. Вып. 5. – С. 247–258. (Manukyan S. Political Islam in Syria: emergence and prospects. Arab countries of Asia and North Africa. M., 2004. Issue. 5. – P. 247–258.)

43 Ёвкочев Ш.А. Политизация религии и проблема исламского экстремизма в современном Египте: дис. ... канд. полит. наук. – Т.: ТашГИВ, 2000. С. 24. (Yovkochev Sh.A. Politicization of Religion and the Problem of Islamic Extremism in Modern Egypt. Dissertation of a PhD (Political Science). – T.: TSIOS, 2000. – P. 24.)

44 Ланцов С. А. Терроризм на Ближнем Востоке: основные этапы эволюции // Политическая экспертиза: ПОЛИТЭК. 2020. – Т. 16, № 2. – С. 287. (Lantsov S. A. Terrorism in the Middle East: the main stages of evolution // Political expertise: POLITEKS. 2020. V. 16, No. 2. – P. 287.)

45 Ланда Р.Г. Политический ислам - предварительные итоги. – М., 2005. – С.109. (Landa R.G. Political Islam - preliminary results. M., 2005. – P.109.)

46 Кудрявцев А.В. Феномен «арабских афганцев». Ближний Восток и современность, – М., 2003, № 17, – С. 164–174. (Kudryavtsev A.V. The phenomenon of "Arab Afghans". Middle East and Modernity, – M., 2003, No. 17, – S. 164–174.)

47 Юрченко В.П. Египет проблемы национальной безопасности (1952–2002 гг.). – М., 2003. –С. 254. (Yurchenko V.P. Egypt problems of national security (1952–2002). – M., 2003. – P. 254.)

AQSHning Iroqqa harbiy intervensiyasi. Ommaviy qirg'in qurollarini ishlab chiqish hamda "Al-Qoida" xalqaro terrorchi guruhi bilan hamkorlik qilishda ayblangan Saddam Husayn rejimi 2003-yilda AQSH va uning ittifoqchilari tomonidan ag'darib tashlandi. Saddam Husayn hukumatiga qarshi qo'yilgan ayblovlarning hech biri o'z isbotini topmadi. O'ylab topilgan bahona va noto'g'ri tahlilga asoslangan mazkur urush Iroqda siyosiy beqaror vaziyatni yuzaga keltirdi hamda butun mintaqa xavfsizligiga ta'sir ko'rsatdi. Misrning sobiq prezidenti Husni Muborak Iroq urushi haqida to'xtalib, bu urush hech qanday ijobiy natija bermasligi, yangi "Ben Ladinlar"ni keltirib chiqarishi, musulmonlarni yana ham ko'proq G'arbga qarshi ekstremizmga undashini ta'kidlagan edi⁴⁸. O'z navbatida, Suriya prezidenti Bashar Asad ham 2002-yildayoq: "...Iroqqa bostirib kirish keng miqyosli terrorizmga poydevor qo'yadi va bu faqat Iroq bilan cheklanib qolmaydi"⁴⁹, degan edi. Mintaqada yuz bergan keyingi siyosiy jarayonlar ikki davlat rahbarlarining barcha xavotirlari asossiz bo'lmaganligini ko'rsatdi. Iroqda sodir bo'lgan urush jiddiy iqtisodiy inqirozni keltirib chiqardi, qochqinlar oqimiga sabab bo'ldi, mazhablararo qarama-qarshilikni kuchaytirdi, Yaqin Sharqda radikalizm, ekstremizm va terrorizmning yangi to'loqini vujudga keltirdi. Mazkur jarayonlarga to'xtalarkan, akademik V.Naumkin obrazli qilib: "Mazhab jini"ni shishadan chiqarib, harbiy kuch yordamida mamlakatga demokratiya va samarali boshqaruv olib kelishni o'z zimmasiga olganlar mamlakatni ichki nizolarga mahkum qildilar"⁵⁰, deya o'z munosabatini bildiradi.

Sharqshunos tarixchi olim L.E.Grinin "davlat faoliyatiga har qanday aralashish, siyosiy tuzumlarni ag'darish, davlat tuzumining qulashi – bularning barchasi radikalizm, ekstremizm va terrorizmning keskin kuchayishiga xizmat qilmoqda"⁵¹, deb hisoblaydi. L.E.Grininga ko'ra: "Bunday qo'zg'alishlar, ayniqsa, Iroq kabi ko'p konfessiyali va etnik xilma-xil bo'lgan jamiyatlarda (undan ham ko'proq Suriyada) xavflidir. Iroq davlatining qulashi hokimiyat bo'shlig'iga, shialar va sunniylar o'rtasidagi kuchlar muvozanatining o'zgarishiga, kurd milliy harakatining kuchayishiga va keyinchalik "Islom davlati" paydo bo'lishiga olib keldi"⁵². Darhaqiqat, Saddam Husayn hokimiyatdan ag'darilganidan so'ng yangi hokimiyat tomonidan Iroq armiyasidan haydalgan sobiq zobitlar guruhi 2013-yilda dastlab "Iroq Islom Davlati" deb nomlangan tuzilmani yaratib, sunniy arablar yashovchi qator hududlarda nazorat o'rnatadi. Ko'p o'tmay, o'z faoliyatini fuqarolar urushi bo'lgan qo'shni Suriyaga ham kengaytirdi va "Iroq va Shom Islom Davlati" (ISHID) deb o'zgartirdi. ISHID Iroq va Suriyadagi ulkan hududlarni

48 Каранг: Мамедзаде П.Н. Египет и арабский Восток на рубеже XX–XXI веков // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Международные отношения. – 2004. – №. 1. – С. 113. (See: Mammadzade P.N. Egypt and the Arab East at the turn of the XX-XXI centuries // Bulletin of the Peoples' Friendship University of Russia. Series: International relations. - 2004. - No. 1. – P. 113.)

49 Президент Сирии: война в Ираке создаст благодатную почву для терроризма // Интернет-издание Newsru.com. 13.12.02. - URL: <https://www.newsru.com/world/13dec2002/asad.html> (The President of Syria: the war in Iraq will create fertile ground for terrorism // Online edition Newsru.com. 13.12.02. - URL: <https://www.newsru.com/world/13dec2002/asad.html>)

50 Наумкин В. Кризис на Ближнем Востоке: внешнее вмешательство и разгул экстремизма // Интернет-издание Globalaffairs.ru. 15.07.2015. – URL: <https://globalaffairs.ru/articles/krizis-na-blizhnem-vostoke-vneshnee-vmeshatelstvo-i-razgul-ekstremizma/> (Naumkin V. Crisis in the Middle East: external interference and rampant extremism // Internet edition of Globalaffairs.ru. 07/15/2015. – URL: <https://globalaffairs.ru/articles/krizis-na-blizhnem-vostoke-vneshnee-vmeshatelstvo-i-razgul-ekstremizma/>)

51 Гринин Л.Е. Исламизм: история и современность. История и современность. 2019. №2 (32). – С. 22. (Grinin L.E. Islamism: history and modernity. History and modernity. 2019. No. 2 (32). – P. 22.)

52 Qarang: O'sha manba, o'sha joyda. (See: Ibid. p-p. 22.)

nazorat qiluvchi kvazidavlat tuzilmasi sifatida vujudga keldi⁵³. Sh.Yovqochev to'g'ri ta'kidlaganidek, "aksariyat hollarda, asosan, qurol-yarog' ko'p to'plangan va nizoli vaziyat mavjud bo'lgan hududlarda radikalizm osonlik bilan siyosiy ekstremizm va terrorizmga o'tib oladi"⁵⁴.

"Arab bahori". Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika davlatlarida keskin siyosiy jarayonlarni yuzaga keltirgan "Arab bahori" voqealariga ichki omillar bilan bir qatorda tashqi omillar ham ta'sir ko'rsatdi. Bu haqida N.Abdullayev shunday deydi: "Arab bahori" arab dunyosidan tashqaridagi kuchlar tomonidan qo'zg'atilgan ig'vo bo'lib, buning natijasida tashqi aktorlar ba'zi arab poytaxtlariga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatini qo'lga kiritdi"⁵⁵. Misrdan farqli o'laroq, 2011-yilda Suriyada yuzaga kelgan beqaror vaziyatga siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sabablardan ham ko'ra ko'proq tashqi omillar ta'sir ko'rsatgan edi. Suriyada hokimiyatni o'zgartirishga oid barcha talablar asosan tashqi ildizlarga ega. Suriyada tartibsizliklar kelib chiqishiga bevosita ta'sir etgan tashqi omillar toifasiga aholi o'rtasidagi g'arbparastlik targ'iboti hamda G'arb davlatlarining Suriyadagi muxolifatni qo'llab-quvvatlashini kiritish mumkin⁵⁶.

Xulosa. Yaqin Sharq mintaqasining ikki yirik davlatlari – Misr Arab Respublikasi hamda Suriya Arab Respublikasi misolida radikalizm va ekstremizmning kuchayishi omillarini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, Misr va Suriya prezidentlari tomonidan harbiy avtoritar rejimlarning o'rnatilishi va uzoq vaqt boshqaruvni o'z qo'lida tutib turishi ikki mamlakatda ham demokratik va fuqarolik institutlarining rivojiga katta to'siq bo'ldi. Mazkur davlatlarda demokratik institutlarning to'liq shakllanmaganligi hamda huquqiy davlatning zaifligi aholining jamiyatdagi muammolar yechimini islom dinidan izlashga, yoshlar o'rtasida diniy kayfiyatning yanada ko'tarilishiga, aholining radikallashtiruviga ta'sir ko'rsatgan.

Ikkinchidan, Misr va Suriyada uzoq yillar davomida "Favqulodda holat to'g'risida"gi Qonun bilan o'rnatilgan favqulodda holat rejimi mazkur hukumatlarga ommaviy axborot vositalariga senzura qo'yish, odamlarni kuzatish, ularni aybsiz hibsga olish va huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan so'roq qilish imkoniyatini berdi. Mazkur holat ikkala mamlakat aholisi orasida ekstremizmning kengayishiga olib kelgan.

Uchinchidan, Misr va Suriyada aholi turmush darajasining pastligi, aholini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy himoya dasturlarining real hayotga joriy qilish borasidagi siyosiy islohotlarining yetarli darajada emasligi, mamlakatda barqaror demografik o'sish (Misrda), aholi, ayniqsa, yoshlar orasida ishsizlikning yuqoriligi turli ijtimoiy noroziliklar va ziddiyatlarning yuzaga kelishiga, hukumatga qarshi radikal guruhlarining shakllanishiga, "odilona, islomiy boshqaruvni" yaratish g'oyalarning tug'ilishiga olib kelgan.

To'rtinchidan, XX asr oxiri – XXI asr boshida Misr va Suriyada radikalizm, ekstremizm va terrorizmning keng yoyilishiga Arab-Isroil urushlaridagi mag'lubiyatlar, 1978–1979-yillarda Misr va Isroil o'rtasida imzolangan tinchlik shartnomalari, 1979-yilda Eronda sodir bo'lgan

53 Ланцов С.А. Терроризм на Ближнем Востоке: основные этапы эволюции // Политическая экспертиза: ПОЛИТЭК. 2020. Т. 16, № 2. – С. 288. (Lantsov S.A. Terrorism in the Middle East: the main stages of evolution // Political expertise: POLITEKS. 2020. V. 16, No. 2. – P. 288.)

54 Yovqochev Sh. Jahon siyosatida islom omili. – T: TDShU, 2022. – B. 13. (Yovqochev Sh. Islamic factor in world politics. – T: TSUOS, 2022. – P.13.)

55 Abdullayev N.A. Xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlar sharoitida Suriyaning siyosiy transformatsiyasi: siyosiy fan doktori... dis. –T: TDShU, 2022. – B. 21. (Abdullayev N.A. Political transformation of Syria in the face of threats to security and stability. Dissertation of a DSc (Political Science). -T: TSUOS, 2022. – P. 21.)

56 Batafsil qarang: Abdullayev N.A. O'sha manba, – B. 116– 132. (See more: Abdullayev N.A. Ibid. – P. 116– 132.)

islom inqilobi va “islom inqilobi eksporti” g‘oyasi, Afg‘on urushi hamda mazkur davrda jahondagi terrorchilik harakatlarining faollashuvi, AQSH va uning ittifoqchilari tomonidan Iroqqa uyushtirilgan harbiy intervensiya kabi tashqi omillar sabab bo‘lgan. Afg‘oniston, Iroq va Suriya davlatlarining zamonaviy tarixida sodir bo‘lgan voqealar tahlili shuni ko‘rsatadiki, harbiy kuch yordamida davlat faoliyatiga tashqaridan aralashish, siyosiy tuzumlarni ag‘darish – mamlakatda radikalizm, ekstremizm va terrorizmning keskin kuchayishiga olib kelgan. Mazkur mamlakatlarda yuzaga kelgan beqaror vaziyat mintaqalar xavfsizligi va barqarorligiga katta tahdid bo‘lib qolmoqda.